

## Bolani emizayotganda bo'ladigan ko'krak uchidagi og'riqning sababi nima?

Ko'krak uchi og'rig'i - emizikli onalar duch keladigan keng tarqalgan muammodir.

Ko'krak uchi og'rig'i turli sabablarga ko'ra paydo bo'lishi mumkin. Davolash sabablarga bog'liq bo'lgani tufayli uni aniqlash muhim. Emizish bo'yicha sertifikatlangan maslahatchi (IBCLC - International Board-Certified Lactation Consultant) yoki emizishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha malakali tibbiyot mutaxassisi yordam berishi mumkin.

Bolani emizish og'riqli bo'lmasligi, ko'krak uchi terisi shikastlanmasligi kerak. Dastlabki bir yoki ikki hafta ichida yengil sezgirlik bo'lishi mumkin. Keyin bu noqulaylik o'tib ketishi kerak. Ko'krak uchi og'rig'i ko'krakni noto'g'ri berish yoki chaqaloqning noto'g'ri emishi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Kichkintoyingizning og'zining shakli uning so'rish usuliga ta'sir qilishi mumkin.

Ba'zi onalarda bir-ikki haftadan so'ng ko'kraklarida va ko'krak uchida yengil sanchiq hissi paydo bo'lishi mumkin - bu "itarib chiqarish refleksi" yoki "sog'ilish" deb ataladi. Bu normal holat, lekin hamma ham buni boshdan kechirmaydi, shuning uchun o'zingizni bunday his qilmasangiz, tashvishlanmang. "Sog'ilish" - bu sut tezroq chiqib, chaqalog'ingiz tez-tez yutayotganida eshitiladigan holat. Bu bir emizishda bir necha marta sodir bo'lishi mumkin.



### **Ko'krak uchi quyidagicha bo'lmasligi kerak...**

- Bolani emizganda og'rishi yoki qonashi
- Qizargan, namlangan, qabargan, yorilgan yoki qonagan ko'rinishda bo'lishi
- Emizgandan song bujmaygan, uchli yoki oqargan (oqshaygan) ko'rinishda bo'lishi

Agar bir necha hafta yoki oy davomida og'riqsiz emizishdan so'ng, ko'krak uchining qizarishi, qizishi yoki qattiq og'rishi kuzatilsa, bu chahmazak kabi zamburug'li infektsiya bo'lishi mumkin. Zamburug', shuningdek, chaqaloqning og'zida oq dog'lar yoki taglik ostidagi och qizil toshma sifatida paydo bo'lishi ham mumkin. Ushbu infektsiyani davolash uchun maxsus protseduralar va dori-darmonlar kerak bo'ladi. Qo'shimcha ma'lumot va davolanish uchun shifokoringiz va farzandingiz shifokori bilan bog'laning.

### **Biz bilan bog'lanish**

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun Emizish tibbiyot markaziga 513-636-2326 raqamiga qo'ng'iroq qiling.

Last Updated 05/2024 by Barb Chaney, MSN, RN (Registered Nurse), IBCLC (International Board-Certified Lactation Consultant)